



BUYUK O‘ZBEK YO‘LI

BUGUNGI YOSHLAR
KECHAGI YOSHLAR EMASULARNING ONGI, DUNYOQARASHI,
ORZU-ISTAKLARI, TALABLARI O‘ZGARDI

Taraqqiyot shiddati tobora ortib, global tahdidlar va transformatsiya jarayoni kuchayib borayotgan bugungi murakkab davrda davlatimiz oldida turgan eng muhim vazifalardan biri yosh avlodni munosib tarbiyalash va yoshlarga oid siyosatni samarali yuritish bo‘lib qolmoqda. Mamlakatimizda yoshlar ta‘limi, bandligi, ijtimoiy holati, sog‘lig‘i bilan bog‘liq muammolarni tizimli asosda yechish, ularning kamol topishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga katta e‘tibor qaratilishi zamirida ham ana shu ehtiyoj mazmun-mohiyati mujassam.

BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga ko‘ra, 2030-yilgacha butun dunyoda yoshlar ulushi yetti foiz oshishi kutilmoqda. Bu yoshlar masalalariga, ularni voyaga yetkazish bilan bog‘liq muammolarga e‘tiborni yanada kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Davlatimiz rahbari 2017-yildayoq BMT Bosh Assambleyasida yoshlar huquqlari bo‘yicha konvensiya qabul qilish tashabbusini ilgari surish orqali davlatlarni yoshlar taqdiri va kelajagi borasida mas‘uliyatni o‘z zimmlariga olishga chaqirgandi.

Ma‘rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, “Har bir millatning saodati, davlatning tinchi va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqdir”.

Yangi O‘zbekiston o‘g‘il-qizlarining yaxshi tarbiya topishidan yetuk kadr bo‘lishiga qadar tizimli ishlar bajarilmoqda. Quvonarlisi, mamlakatimizning yoshlar siyosatiga oid imiji tobora mustahkamlanib, o‘ziga xosligi bilan xalqaro hamjamiyat e’tirofiga sazovor bo‘lmoqda.

Davomi 3-betda



DAXLDORLIK

XALQIMIZ EHTIYOJI VA
TARAQQIYOTIGA MOSYOXUD AHOLI DAROMADI
O‘RTACHADAN YUQORI DAVLATLAR
QATORIGA QACHON KIRAMIZ?

Dunyo xaritasida bundan 32 yil muqaddam yangi suveren va mustaqil davlat, ko‘p millatli O‘zbekiston Respublikasi paydo bo‘ldi. Shu kundan boshlab xalqimiz Vatani, taqdiri va kelajagiga egalik qilish huquqini qo‘lga kiritdi. Mustaqil rivojlanish yo‘liga tushib oldi va keng ko‘lamli islohotlar qilish imkoniyatiga erishdi.

Xususan, yaqin yillardagi taraqqiyot natijasida Vatanimizning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy hayotida butunlay yangi davr boshlandi. Bu vaqt mobaynida barcha soha va tarmoqlarni yuqori bosqichga olib chiqish strategiyasi ishlab chiqildi va izchil

davom ettirilmog‘da. Jumladan, Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi tom ma’noda xalqimizning orzu-istaklarini, hayotiy ehtiyoj va zarurlari ijobatiga xizmat qiluvchi dasturlamal o‘laroq vujudga keldi.

Davomi 5-betda

PREZIDENT TASHRIFIDAN SO‘NG

QIRQ TOYLI
QISHLOQ

Davlatimiz rahbari joriy yil 27-28-iyul kunlari Farg‘ona viloyatiga tashrifi chog‘ida Bag‘dod tumanidagi “Xitoy” mahalla fuqarolar yig‘inida bo‘lib, qishloqning mehmondo‘st, mehnatkash, samimiy odamlari bilan suhbatlashdi, ularning bugungi qaynoq hayoti bilan tanishdi. Bu tashrif ko‘hna qishloqqa yangi hayot nafasini olib keldi, odamlarning kayfiyati, ruhiyatini ko‘tardi.

Davomi 4-betda

OCHIQ MULOQOT OLDIDAN

STANDARTGA MUVOFIQLIK
TADBIRKORGA NIMA BERADI?

Jahon standartlari doirasida faoliyat yuritish, ichki bozorni sifat va xavfsizlik jihatdan tartibga solish bir tomondan iqtisodiyot rivojiga, ikkinchi tomondan, uni turli noqonuniy mahsulotlardan himoya qilishga xizmat qiladi. Bugungi kunda milliy sifat infratuzilmasini xalqaro me‘yorlarga moslashtirish chora-tadbirlaridan ko‘zlangan maqsad ham shu.

Davomi 2-betda

OBOD MANZILLAR

LOYIHA MUKAMMAL BO‘LSA,
INSHOOT MUSTAHKAM BO‘LADI

BUNI QURUVCHILAR YAXSHI ANGLAB YETMOG‘I ZARUR

Qurilish tarmog‘i Navoiy konmetallurgiya kombinati tizimida keng rivojlanayotgan sohalardan biri. Bugun NKMK quruvchilari qurayotgan inshootlar kombinat ravnaqi, yurt taraqqiyoti, xalq farovonligiga xizmat qilmoqda. Ular orasida bunyodkorlarimizning o‘z kuchi bilan investitsion loyihalar asosida qurayotgan zamonaviy sanoat industriyasi, ya‘ni gidrometallurgiya zavodlari, kon va shaxtalar, temir yo‘llar, ko‘priklar va magistrallar, ijtimoiy soha obyektlari yangi O‘zbekistonning me‘moriy qiyofasini yanada muhtasham etyapti.

Davomi 4-betda



MULOHAZA

HAVASIM KELADI SENGA,
bolajon!

Beg‘ubor bolaligini qo‘msamaydigan odam bo‘lmasa kerak. Biroq bolalik nafaqat ortda qolgan zavq-u quvonch, shirin orzular, balki oddiygina ehtiyoj, armonlar og‘ushi ham ekani kishini o‘ylantirmasligi, iztirobga solmasligi mumkin emas.

Biz sobiq sho‘rolar saltanati urushdan horib chiqqan, jangohdan holisiz qaytgan otalar farzandlarimiz. Biz “erkatoy”lar uchun tolyog‘och tulpor-upatnis mashina, nonqovurdor palov-u atala eng sevimli taom bo‘lgani ham haqiqat.

Maktabga chiqishimiz ota-onamizni unchalik xursand qilgan, deb bo‘lmaydi. Chunki jo‘jabirday jonni qornidan ortirib, shunchaki kiyintirish, eng zarur kitob-dafdar olib berish ham nochorgina kun ko‘ruvchi oila boshilarimizga oson kechmagan.

U zamonlarda bog‘cha u yoqda tursin, qishlog‘imizdagi yagona maktabda parta va sinf xonasi yetishmasdi. Tag‘in boshlang‘ich sinflardayoq bolalarning o‘ziga xos “yo‘naishlari” belgilab qo‘yilgandi. Bu uyimiz — maktab — kolxoz dalasi va yana uyimizni o‘z ichiga olar, ya‘ni ertalab maktabga o‘qishga borardik, bir-ikki soat tig‘izlashtirilgan darslarni o‘qigandan keyin yana dalada ishlab, xuftonda uy-uyimizga qaytardik.

Ayniqsa, paxta yakkahokimligi davrida birorta ommaviy dala yumushi, u yaganami, o‘toq, chopiq yo chekanka, bizni chetlab o‘tmasdi. Paxta yig‘im-termini-ku, asti so‘ramang. Terim boshlanganda dalaga ketib, zax shiyonlarda tunab, mavsum yakunlanganda uylarimizga qaytardik. Turg‘unlik deb atalgan yillarda sentabrda terimga tushib, yangi yildan o‘qishga chiqqanimiz ham lof emas. Ha, maktabimiz ham, o‘yingohimiz ham, dam olish joyimiz ham hayotdek dalalar edi, desam hozirgi davr yoshlari ishonmasligi turgan gap. Ammo bu ayni haqiqat ekani o‘sha zamon uqubatlarini o‘z boshidan kechirganlar uchun zararcha isbot talab qilmaydigan aksioma.

Davomi 6-betda

OCHIQ MULOQOT OLDIDAN

STANDARTGA MUVOFIQLIK TADBIRKORGA NIMA BERADI?

Jasur SHUKUROV,
O'zbekiston ilmiy-sinov va
sifat nazorati markazi direktori

“

“O'zTest” davlat muassasasi faoliyatidagi eng muhim jihatlardan biri shuki, hududlarda faoliyat yuritayotgan 16 ta sinov laboratoriyasi O'z DST ISO/IEC 17025:2019 standarti bo'yicha akkreditatsiyadan o'tkazildi.



GSP+ doirasida eksport hajmini kengaytirish bo'yicha ushbu tizimda eksport qilinadigan 1 ming 533 xil mahsulotga

sabzavot va to'qimachilik mahsulotlari Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Qatar va MDH davlatlariga eksport qilindi.

Joriy yilda 491 holatda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahsulotning muvofiqligini deklaratsiyalash yo'li bilan muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirilishi



tufayli ular 785,6 million so'm mablag'ni iqtisod qiladi.

282 ta fermer xo'jaligining 11 ming gektar ekin maydonida esa Global G.A.P. va Organic xalqaro standartlari joriy qilinib, sertifikatlashtirildi. “OEKO-TEX” xalqaro standartlari joriy qilingan to'qimachilik korxonalarini soni 53 taga yetkazildi. 33 ta korxonaga SE markirovkasi olinishi o'z mahsulotlarini Yevropa Ittifoqi bozoriga olib kirish imkonini berdi.



Shuningdek, tadbirkorlik subyektlari tomonidan sertifikatlashtirish organini aniqlab, ariza taqdim etish uchun sarflanayotgan o'rtacha vaqt 3-4 kundan 1 kungacha, rasmiylashtirilgan muvofiqlik sertifikatlarini bo'xona idoralari elektron tizimdan to'g'ridan-to'g'ri olish vaqti 2 kungacha qisqardi. Bu esa sertifikatlashtirish tizimi shaffofligini oshirib, qalbakilashtirish va korrupsiya holatlarini minimallashtirdi.

Bundan tashqari, Eksportni rag'batlantirish agentligi bilan hamkorlikda meva-sabzavot, to'qimachilik mahsulotlari va buyumlarini eksport qiluvchi 61 ta eksportchi korxonaga rasmiylashtirilgan muvofiqlik sertifikatini bilan bog'liq xarajatlar qoplab berildi. “O'zTest” davlat muassasasi ko'magida 27,1 million AQSH dollarlik meva-

lash hamda ko'rsatilayotgan xizmatlarni raqamlashtirishni jadallashtirish, xavf darajasi yuqori bo'lgan (ozuq-ovqat va qishloq xo'jaligi, metall, elektrotexnika) mahsulotlarni sertifikatlashtirish yuzasidan notifikatsiyalangan idora maqomini olish choralari ko'rildi.

Eksportga yo'naltirilgan hamda mahalliy sanoat mahsulotlarining xalqaro xavfsizlik ko'rsatkichlarini (ISO, IEC, EN, UNECE, CODEX STAN, CISPR, SE markirovka, Yevropa iqtisodiy komissiyasi qoidalari) standartlar asosida aniqlash, muvofiqligini baholash bo'yicha sinov laboratoriyalari modernizatsiya qilindi.

Dunyoda o'z o'rniga ega xorijiy tashkilotlar bilan korxonalarda mahsulotlarni xalqaro Global G.A.P., Organic, Halal, GMO, Kosher sertifikatlashtirish hamda ISO standartlar bo'yicha sifat tizimlari keng joriy etiladi.

Bularning bari sohada malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni oshiradi. Shu maqsadda muvofiqlikni baholash sohada mutaxassislar tayyorlash va malakasini doimiy oshirib borish maqsadida Germaniya, Fransiya, Turkiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, BAA, Belarus Respublikasi bilan o'zaro hamkorlik kelishuvlari imzolangan. Yaqin kelajakda kadrlar layoqatini oshirishni ta'minlovchi kompleks tizim ishga tushiriladi.

Umuman olganda, bugungi kunda mamlakatimizda ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar orqali yaqin kelajakda ijobiy natijalarga erishilishi kutilayotgan diqqatga sazovordir.

Jumladan:

— O'zbekistonning Butunjahon savdo tashkiloti (JST)ga qo'shilishi bo'yicha bajarilayotgan ishlarni hisobga olgan holda, xalqaro bozorda yurimuz mahsulot va xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar hamda iste'molchilarni himoya qilish;

— xorij bozorlariga yetkazib berilayotgan mahsulotlar sinov natijalarining tan olinishiga erishish;

— savdoda texnik to'siqlarni bartaraf etish, ichki va tashqi bozorlarda mahsulot raqobatbardoshligini oshirish;

— mamlakatimiz iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlari, ijtimoiy sohalarini, birinchi navbatda, qonun bilan tartibga solinadigan sohalarida muvofiqlikni baholashda davlat funksiyalarini bajarish bo'yicha ehtiyojlarini qoplashga ko'maklashish.

Sinov va sifat nazorati tizimini takomillashtirish yo'nalishida amalga oshirilayotgan bugungi sa'y-harakatlar O'zbekistonni jahon bozori bilan faol hamkorlik qilish va iqtisodiyotini samarali rivojlantirishga qaratilgan. Sohada yechimini kutayotgan muammolarni o'z o'rnida hal etish, ortiqcha ma'muriy to'siqlarni bartaraf qilish, mahsulotlar muvofiqligini baholash tizimini takomillashtirish borish mamlakat tashqi iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga keng imkoniyat yaratadi.

O'ZBEKISTONDA ISHLAB CHIQRILGAN

QOROVULBOZORDAN JAHON BOZORIGA

Davlatimiz rahbari 10-avgust kuni Buxoro viloyatiga tashrifi chog'ida iqtisodiyot rivoji, mahallalar hayoti, sanoat korxonalarini va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini bilan tanishdi.

“Lochin” brendi ostida yuk tashuvchi mototsikllar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan Qorovulbozor tumanidagi “Buxoro real moto” korxonasi 2018-yilda ishga tushirilgan bo'lib, bugungi kunda 250 ga yaqin ishchi mehnat qiladi.

Hozirga qadar asosan, yuk mototsikllari xorijdan valyuta hisobiga yurimuz olib kelingan bo'lsa, mana bir necha yildirki, bunga hojat qolmadi. Chunki o'zimizda ishlab chiqarilayotgan “Lochin” mototsikllari 1 tonna va undan ko'proq yuk ko'tarish quvvatiga ega. Ular qishloq xo'jaligi mahsulotlari, dala-dehqonchilik ishlarida, jumladan, issiqxonalarda yetishtiriladigan bodring, pomidor va boshqa mahsulotlarni tashishda tirgakchilik texnikalariga nisbatan qulayligi, kam yonilg'i sarflashi va boshqa jihatlari bilan ancha ustun. Ayniqsa, dehqon hamda fermer xo'jaliklari uchun ham qulay, ham hamyonboq. Bu ulov chetdan xarid qilinadiganlaridan ancha arzon. Narxi 23 million so'mdan 45 million so'mgacha.

Ayni kunda korxonada rahbariyati bozordagi talabdan kelib chiqib



faoliyatini yanada kengaytirish, marketing ishlarini rivojlantirish harakatida.

Muhimi, mototsikllar xorijga ham sotilyapti. Xususan, joriy yilda Tojikistonga 1 million AQSH dollarlik mahsulot eksport qilindi.

— Davlatimiz rahbari tomonidan ramziy tugma bosilib, korxonamizning ikkinchi bosqichi ishga tushirildi. Endilikda yana 250 ta yangi ish o'rni yaratiladi. Hozirgi kunda ishchilarning 3 million so'mdan 10 million so'mgacha oylik maosh oladi, — deydi korxonada

ta'sischi Sa'dijon Vahobov. — Bor imkoniyatlarimizni ishga solib, “Buxoro real moto” korxonasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan “Lochin” brendi ostidagi mototsikllarni dunyo bozoriga olib chiqishni rejalashtirganmiz. Korxonani ishga tushirishga 30 million AQSH dollari sarflangan. Uning 10 million dollari “Turonbank” tomonidan ajratilgan imtiyozli kredit. Ishonchim komilki, loyiha tezda o'zini oqlaydi. Korxonada joriy yilning o'tgan davrida 170 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Shuning o'zida ham zavodning qanday salohiyatga egaligidan dalolat berib turibdi, deb o'ylayman.

— Bildirilgan ishonch bizlarga motivatsiya, kuch berdi. Biz bu ishonchni albatta, oqlaymiz. Keyingi rejimiz — elektr yuk mashinalarini ishlab chiqarish. Bu borada hamkorimiz Xitoy davlati bilan dastlabki kelishuvga erishdik. 2025-yilga qadar ushbu loyihamiz ham amalga oshsa, bozordagi raqobatbardosh subyektlardan biriga aylanamiz. Ayni paytda korxonada faoliyatini barqarorlashtirish, elektr energiyasiga bo'lgan talabni qondirish maqsadida quvvati 500 kilovatt bo'lgan quyosh elektr stansiyasi quryapmiz, — deya izohlaydi korxonada rahbari Sohijon Sulaymonov.

Xulosa qilib aytganda, davlatimiz tomonidan yaratib berilgan keng imkoniyatlardan foydalangan har bir tadbirkor o'z salohiyatini ishga solgan holda harakat qilsa, yuqoridagi korxonada kabi ulkan natijalarga erishadi.

Islom KARIMOV,
jurnalist

BIZ VA DUNYO

O'ZBEKISTON VA HINDISTON

ILM-FAN, TA'LIM
SOHASIDAGI HAMKORLIKNING
YANGI SAHIFALARI



Omonulla
MUHAMMADJONOV,
Toshkent davlat yuridik
universiteti professori,
yuridik fanlar doktori

O'zbekiston va Hindiston strategik sheriklardir. An'anaviy do'stona aloqalar asosida savdo, sarmoya, iqtisodiyot, madaniy gumanitar hamkorlik, yoshlar va ta'lim almashinuvlari bilan bog'liq turli sohalar, ayniqsa, yuqori texnologiyalar, innovatsiya, sanoat, dasturlash, sog'liqni saqlash, xizmat ko'rsatish borasidagi hamkorlik so'nggi yillarda jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Endilikda ilmiy va madaniy sohada samarali aloqalarni rivojlantirishda bularning barchasi katta salohiyat va mazmun kasb etmoqda.

Bu borada mamlakatlarimizning qu'shma ta'lim, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarini ochish, ilmiy tadqiqot va texnologiyalar sohasida hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, innovatsion ishlan-

Hindiston parlamentiga tashrif mobaynda 3 milliondan ortiq turli nashrlar to'plangan kutubxonada saqlanayotgan, 1949-yilda Ta'asis Majlisining barcha a'zolari shaxsan imzo chekkan Hindiston Konstitutsiyasining katta hajmdagi ikki asl nusxasi, ya'ni asosan qo'lda yozilgan ingliz va hind tilidagi nusxalari bilan tanishishga musharraf bo'ldim.

Ma'lumki, Hindiston Ikkinchi jahon urushidan keyin 1947-yilda mustamlakachilik qaramligidan ozod bo'lgan dunyodagi yirik davlatlardan biri. Undan keyin ozod bo'lgan boshqa mamlakatlar xalqlari uchun o'zining asl davlatchiligi va dastlabki 3 yil davomida yaratilgan mustaqil Konstitutsiyasini yaratgan mamlakat sifatida ma'lum darajada uning tajribasi namunaga aylangan. Endilikda u “Konstitutsionalizmni rivojlantirishning jonli laboratoriyasi”, deb e'tirof etiladi.

Hindiston Konstitutsiyasi 70 yillik rivojlanish davrida o'ziga xoslik, zamonaviylik va an'analarning ajoyib uyg'unligini va eng muhimi, hozirgi dunyoning o'zgaruvchan sharoitlariga moslashish qobiliyatini namoyish etdi. Endilikda ko'p millatli, ko'p konfessiyali Hindistonning rivojlanish odimlari uning samarali taraqqiyotini ta'minlamoqda va yorqin istiqboliga ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bunda ushbu mamlakatning boy konstitutsiyaviy tajribasi alohida o'rinni egallaydi.

O'tgan 70 yil mobaynda mustaqil Hindiston Konstitutsiyasi rasmiy o'zgartirishlar, sud amaliyoti yoki oddiy qonunlar orqali qator o'zgarishlarga duch keldi. Shu vaqt ichida kiritilgan ko'plab o'zgartirish Hindiston Asosiy qonunidagi ko'pgina qoidalar tuzilishini, matni va haqiqiy mazmunini sezilarli darajada o'zgartirdi. Tabiiy savol tufayli: nima sababdan ushbu Konstitutsiyani o'zbek tiliga tarjima qilish mutaxassislardan iborat ijodiy guruhdan ikki yillik muddatni talab



malarni tijoratlashtirishni nazarda tutuvchi qo'shma “Yo'l xaritasi” qabul qilindi. Yurtimizda Hindistonning Amity, Sharda, Sambaram kabi oliy o'quv yurtlari filiallari ochildi. Yaqin vaqtlarda esa Global, LNCT, Integral OTM filiallarini ham ochish rejalashtirilmogda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami konstitutsiyaviy islohotlar jarayonida ikki mamlakat universitetlari o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Yaqinda Dehli universiteti taklifiga binoan Hindistonning O'zbekistondagi elchixonasi ko'magida ushbu mamlakatning huquqiy va ta'lim tizimi bilan tanishish, yuridik kadrlar tayyorlash sohada oliy ta'lim muassasalarini tajribasini o'rganish, Hindiston va O'zbekiston universitetlari o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalari o'rnatishni nazarda tutgan xizmat safarida bo'ldim.

Tashrif davomida salkam ikki yildan buyon universitetimiz tomonidan Hindiston tashqi ishlar vazirligining maxsus granti asosida amalga oshirilayotgan Hindiston Konstitutsiyasining yaratilishi tarixiga oid materiallarni to'plash maqsad qilingan edi. Shu munosabat bilan konstitutsiyaviy huquq bo'yicha Hindistonning yetakchi mutaxassislari bilan qator uchrashuvlar, suhbatlar ko'lib o'tdi. Turli davlat va oliy ta'lim muassasalariga tashriflar tashkil qilindi. Jumladan, Konstitutsiya matnini ishlab chiqish ishlariga bevosita rahbarlik qilgan Hindiston Respublikasining birinchi adliya vaziri, doktor Baba Sohib Ambekar hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan memorial muzeyning ulkan ekspozitsiyasi bilan tanishish hind xalqining mustamlakachilik istibodidan ozod bo'lish yo'lida olib borgan uzoq kurashi haqidagi tasavvurimni yanada boyitdi. Bizda ham mamlakatimizning Asosiy qonuni bo'lgan Konstitutsiyamiz tarixiga bag'ishlangan alohida muzey tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etgan bo'ldi.

Mustasar aytganda, islohotlar davrida yuqorida qayd etilgan sohalar rivojiga katta e'tibor qaratayotgan mamlakatimiz uchun Hindiston bosib o'tgan tarixiy yo'l ham diqqatga sazovor bo'lib, bunda huquqshunos mutaxassislarining hamkorlik doirasini kengaytirish muhim.



Mamayunus PARDAYEV, Murod MUHAMMEDOV, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professorlari, iqtisodiyot fanlari doktorlari

TARIXAN QISQA VAQTDAN XALQIMIZNING FIDOKORONA MEHNATI VA QAT'YATI BILAN AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR NATIJASIDA MILLIY O'ZLIGIMIZ, ASL QADRIYATLARIMIZ, QADIMIY TARIXIMIZ, BOY MADANIYATIMIZ VA AN'ANALARIMIZGA ASOSLANGAN YANGI O'ZBEKISTON TIKLANMOQDA. DAVLAT VA JAMIYAT HAYOTINING TUB ASOSLARI O'ZGARIB, MAMLAKATIMIZ DUNYO HAMJAMIYATIDA MUNOSIB O'RNIGA EGA BO'LIB BORMOQDA.

Boshlanishi 1-betda

Ayni paytda mamlakatimiz "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" degan g'oyaning insonparvar mazmun-mohiyatini o'zida mujassam etgan holda rivojlanish yo'lida izchil davom etmoqda. Shu tariqa Taraqqiyot strategiyasining iqtisodiyotga oid jihatlari ham bir qancha yo'nalishlarda ro'yobga chiqmoqda.

Birinchidan, Taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atini ta'minlash bo'yicha bir qancha vazifalar belgilangan. Bunda iqtisodiyot tarmoqlarini jadal taraqqiyot etirish uchun tadbirkorlikka keng yo'l ochish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Chunki bu yo'l mamlakatimiz uchun o'ta zarur bo'lgan yangi ish o'rinlari yaratish orqali kambag'allikni qisqartirish hamda aholi turmush farovonligini oshirishga erishishning muhim omiliga aylandi. Buning uchun milliy iqtisodiyotda yuqori o'sish sur'atini ta'minlash bo'yicha 15 ta maqsadda jamlangan vazifalar belgilandi.

Ikkinchidan, iqtisodiy islohotlarning eng muhimlaridan biri sifatida iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda (2022-2026-yillar) aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni 1,6 barobar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollaridan oshirish hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun zamin hozirlash vazifasi qo'yilgan.

Uchinchidan, milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan siyosatni davom ettirib, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobar oshirish zarur bo'lmoqda. Shu tufayli sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayoni tizim rivojida amalga oshirilmoqda. Statistika agentligi ma'lumotiga ko'ra, 2023-yilning 1-iyul holati bo'yicha yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar soni 69 ming 628 taga yetgan. Bu faoliyat yuritayotgan jami korxonalarining 14,6 foizini tashkil etadi. Mamlakatimizda sanoat korxonalar soni ko'p bo'lmasa-da, yetarli darajada mahsulot ishlab chiqarish bilan birga eksport qilish orqali ushbu sohada ham O'zbekistonni dunyoga tanitmoqda.

To'rtinchidan, o'ta dolzarb yana bir muhim masala energiya resurslari bozorini aholi ijtimoiy himoyasini kafolatlagan holda erkinlashtirishga qaratilgan. Bu borada ham keng ko'lami ishlar qilinmoqda. Sohaga xususiy investitsiyani jalb qilish hamda ehtiyojmand aholini ijtimoiy himoyalash uchun iste'mol me'yorlarini kiritish masalasi ham bosqichma-bosqich hal etilmoqda. Shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlari va aholini neft-gaz mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlashga alohida e'tibor qaratilib, bu bo'yicha tizimli ishlar bajarilmoqda. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, joriy yilning yanvar-noyabr oylarida O'zbekiston eksportida energetika va neft mahsulotlari 6-o'rinda bo'lib, shu davrda qiymati 619,6 milliard AQSH dollariga teng mahsulot sotilgan.



tajriba o'plandi. Mazkur sohada kooperatsiyani yanada rivojlantirish orqali ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobar, eksport

hajmini 2 barobar ko'paytirish hamda mahalliy lashtirish darajasini oshirish masalasida tegishli ishlar qilinmoqda. Chirchiq shahrida qishloq xo'jaligi mashinasozligi ishlab chiqarishini yagona sanoat klasteri usulida tashkil etish borasidagi ishlar fikrimiz tasdig'idir.

Mamlakatimizda elektromobillar ishlab chiqarish va foydalanish bo'yicha tegishli choralar ko'rilmoqda. Shu bilan birga, uy-joy kommunal xo'jaligi, ijtimoiy soha obyektlari va boshqa sohalarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, energiya samaradorligini oshirish hamda ushbu chora-tadbirlar "yashil" iqtisodiyot bilan qo'shib olib borilganda iqtisodiyot tarmoqlari havoga chiqaradigan zararli gaz hajmini bir birlik yalpi ichki mahsulot hisobida 10 foiz qisqartirishga erishiladi. Bu ham atmosferaning ekologik tozaligiga xizmat qiladigan strategik ahamiyatga ega choralar-dandir.

To'qqizinchidan, mamlakatimizning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida raqamli iqtisodiyotni asosiy drayver sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 barobar oshirishga qaratilgan ishlarni bajarish ko'zda tutilgan edi. Shu tufayli raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish orqali barcha aholi maskanlari va ijtimoiy obyektlar hamda avtomobil yo'llarini keng polosali ulanish tarmoqlari bilan qamrab olish yuzasidan jadal ishlar qilinmoqda. Chunki iqtisodiyotning real sektori hamda bank-moliya sohasida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 2026-yil yakuniga qadar 70 foizgacha oshirish ko'zda tutilgan. Natijada dasturiy mahsulotlar industriyasi hajmini 5 barobar, eksportini esa 10 barobar oshirib, 500 million AQSH dollariga yetkazish masalasi ustida ish olib borilmoqda.

O'ninchidan, ijtimoiy-iqtisodiy hayot yuksalishida investitsiyani o'rni beqiyos. Shu tufayli investitsiya muhitini yanada yaxshilash va jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan, 70 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb etish choralar ko'rilmoqda. Bu borada investitsiyadan samarali foydalanish hamda eksport hajmini oshirish bo'yicha "pastdan yuqoriga" tamoyili asosida yangi tizim yo'lga qo'yilmoqda.

2026-yilgacha mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini

amalgam oshirish yuzasidan keng ko'lami ishlar qilinmoqda. Aynan davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport,

sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSH dollariga teng investitsiya jalb etish ko'zda tutilgan. Ushbu vazifalarning izchilligini ta'minlab turish uchun har yili Toshkent xalqaro investitsiya forumini o'tkazib borish masalasi kun tartibiga qo'yilgan.

O'n birinchidan, eksport salohiyatini oshirish Taraqqiyot strategiyasining muhim yo'nalishlaridan. Ushbu yo'nalish orqali 2026-yilda mamlakatimiz eksportini 30



qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish ko'zda tutilgan. Buning uchun qishloq joylarda, ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasida yangi ish o'rinlari yaratish, tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Soha rivojida ilm-fan va innovatsiya-ga asoslangan agroxizmatlar ko'rsatish tizimi ahamiyatdan kelib chiqib, uni takomillashtirish masalasi ustuvor ahamiyatga ega. Ammo ayrim tumanlarning o'ziga xos xususiyatlari yetarli darajada o'rganilmagan va aniq mahsulot turini yetishtirishga ixtisoslashtirish uchun yetarli dalillar shakllantirilmagan. Shu tufayli ushbu masalani izga solish uchun ham ilm-fan yutuqlaridan foydalaniladi. Buning uchun nufuzli xalqaro ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalari bilan birgalikda Xalqaro qishloq xo'jaligi universitetini tashkil etish ko'zda tutilgan. Agrar sohada ilm-fan va amaliyot integratsiyasini chuqurlashtirish, aholining tomorqadan samarali foydalanishi uchun sharoit yaratish, shu tariqa agrosanoat korxonalarini xomashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 barobar oshirish rejalashtirilgan. Qishloq xo'jaligida davlatning qo'llab-quvvatlov ko'lamini kengaytirish orqali eksportbov mahsulotlar yetishtirish hamda mevasabzavotchilikni rivojlantirish, intensiv

XALQIMIZ EHTIYOJI VA TARAQQIYOTIGA MOS YOXUD AHOLI DAROMADI O'RTACHADAN YUQORI DAVLATLAR QATORIGA QACHON KIRAMIZ?



milliard AQSH dollariga yetkazish ko'zda tutilgan. Bunga erishish uchun tashqi bozor va xalqaro talablarga javob beradigan standartlarni joriy etish hamda mashhur brendlarni jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda xususiy sektor imkoniyatlaridan samarali foydalanish evaziga uning eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish masalasi qo'yilgan.

Eksportni rivojlantirishda eksportchi korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali mahalliy sanoat tarmoqlari-

Mamlakatimizda "Yangi O'zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti" g'oyasi asosida 200 eksportchi ochiq tanlov asosida saralab olinib, faoliyat ko'rsatmoqda. Ular kelgusida yetakchi eksportyorlarga aylantiriladi. Bu borada eksportyorlar har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda. Yana bir muhim jihat, qo'shni davlatlar bilan chegara hududlarida erkin savdo zonalarini faoliyat yo'lga qo'yiladi.

O'n uchinchidan, iqtisodiyotning drayveri bo'lgan turizm sohasi ham oxirgi yillarda misli ko'rilgan darajada rivojlandi. Bunda turistik obyektlarni va infratuzilmalarni sayyohlarga xizmat ko'rsatishga moslashtirish, ularga sayyohlarni jalb qilish hamda mamlakatimizda to'lish muddatini uzaytirish maqsadida tarixiy-madaniy, ziyorat, ekologik, etnologik, gastronomik, madaniy-ma'rifiy, arxeologik, sog'lomlashtirish va qishloq xo'jaligi turizmini rivojlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilangan. Natijada turli davlatlardan kelgan sayyohlar soni qisqa muddatda juda tez o'sgan. Birgina misol, yaqinda turistik aloqalar yo'lga qo'yilgan Italiyadan sayyohlar oqimi qariyb 5 barobar oshgan. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning yanvar-aprel oylarida Italiyaning 5 mingdan ziyod fuqarosi turistik maqsadda O'zbekistonga kelgan. Bu ko'rsatkich 2022-yilning mos davri bilan solishtirganda 3 ming 953 nafar yoki 4,8 barobar ko'p demakdir.

O'n to'rtinchidan, kambag'allikni qisqartirish, aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoit yaratish masalasiga alohida ahamiyat berilmoqda. Hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish yuzasidan ham tegishli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Taraqqiyot strategiyasida xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80, eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish ko'zda tutilgan. Buning uchun iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorga keng yo'l ochish orqali iqtisodiy munosabatlarda erkin bozor tamoyillarini joriy etishni kengaytirishga erishiladi. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilning 1-iyul holatida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 477 ming 722 ta (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) bo'lib, shundan 67 ming 516 tasi xususiy korxonalar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bularning ulushi 14,1 foizni tashkil qiladi. Kelgusida ularning ulushi keskin oshib boradi.

O'n beshinchidan, qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali qishloq aholisi farovonligini yuksaltirish ko'zlangan. Bunda dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 barobar oshirish,

bog'lar maydonini 3 barobar va issiqxonalarini 2 barobar ko'paytirib, eksport salohiyatini yana 1 milliard AQSH dollariga oshirish ustida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Agrologistika markazlarini rivojlantirish va zamonaviy laboratoriyalar sonini ko'paytirish bilan birga urug'chilik va ko'chat yetishtirish bo'yicha milliy dasturni amalga oshirish masalasi kun tartibidagi dolzarb masalalardan.

O'n oltinchidan, suv resurslari bilan bog'liq muammolar keskinlashayotgani tufayli ushbu masalaga yetarlicha e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda global iqlim o'zgarishi natijasida kuzatilyotgan suv tanqisligining salbiy ta'sirini yumshatish maqsadida suv resurslariga munosabati o'zgartirish zarurati oshmoqda. Suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni tejash bo'yicha alohida davlat dasturini amalga oshirish natijasida kamida 7 milliard kub metr suvni tejash ko'zda tutilgan. Bunga erishish uchun suv xo'jaligi obyektlarida elektr energiyasi iste'moli kamaytiriladi.

Sohada samaradorlikka erishish uchun suv xo'jaligi obyektlarini davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida boshqarish maqsadga muvofiq. Bugun suv resurslarini boshqarish, ularning hisobi va hisobotini yuritish hamda suv munosabatlari yanada takomillashtirish obyekti zaruratga aylandi. Bu esa suvdan tejamli va samarali foydalanish yuzasidan mamlakatimizda keng ko'lami islohotlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan dalolat. Shunga qaramay, quyi bo'g'inda suv resurslarini boshqarish, suv tanqisligi sharoitida iste'molchilar o'rtasida suv taqsimlash, suvning hisobi va hisobotini yuritish hamda suvdan foydalanish samaradorligi pastligiga qolmoqda. Ushbu holat, o'z navbatida, suv resurslarini samarali boshqarish, ularning hisobi va hisobotini to'laqonli yuritish, suv iste'molchilari orasidagi munosabatlarni takomillashtirish hamda ushbu jarayonga xususiy sektorni keng jalb qilish masalasini ham qarab chiqishni taqozo etayotir.

Taraqqiyot strategiyasida yurtimiz aholisining ichimlik suv bilan ta'minlanganlik darajasini 87 foizga yetkazish, 32 ta yirik shahar va 155 ta tuman markazida oqova suv tizimini yangilash masalasi qo'yilgan. Bu borada tizimli ishlar qilinmoqda. Endi suv ta'minoti quvvatlaridan suv sizish nuqtalarini sun'iy yo'l bilan ta'minlash orqali masofadan zondlab aniqlash va ta'mirlashga zamonaviy texnologiyalar joriy etilishi ko'zda tutilgan.

Tarixan qisqa vaqtda xalqimizning fidokorona mehnati va qat'iyati bilan amalga oshirilgan islohotlar natijasida milliy o'zligimiz, asl qadriyatlarimiz, qadimiy tariximiz, boy madaniyatimiz va an'analari bizga asoslangan yangi O'zbekiston tiklanmoqda. Davlat va jamiyat hayotining tub asoslari o'zgarib, mamlakatimiz dunyo hamjamiyatida munosib o'rniga ega bo'lib bormoqda.

